



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI
BUYRUG‘I

2021-y. “05” iyul

324-III/Ch-sonli

Sportning basketbol turi bo‘yicha
2007-2008 yillarda tug‘ilgan o‘smirlar
o‘rtasida O‘zbekiston chempionatini
o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi turizm va sport vazirligining sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining 2021-yil uchun respublika kalendar rejasiga muvofiq

BUYURAMAN:

1. Sport o‘yinlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining 2021-yil 28-iyundagi 225-sonli xati ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sportning basketbol turi bo‘yicha 2007-2008 yillarda tug‘ilgan o‘smirlar o‘rtasida O‘zbekiston chempionati (bundan buyon matnda musobaqa deb yuritiladi) 2021-yil 13 – 18-iyul kunlari Namangan viloyati, Namangan shahrida o‘tkazilsin.

3. Musobaqada ishtirok etuvchi xodimlar tarkibi 1-ilovaga, musobaqani o‘tkazish sarf-xarajatlar smetasi 2-ilovaga, musobaqani ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ‘ib qilishga qaratilgan media-rejasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Moliya-iqtisodiyot departamenti (B.Mirzaxmedov)ga:

a) musobaqani o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni vazirlikning sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining 2021-yil uchun respublika kalendar rejasida 2.1.4.-basketbol bo‘limida belgilangan mablag‘lar hisobidan qoplanishini nazarda tutish;

b) musobaqaning sarf-xarajatlar smetasiga muvofiq mablag‘larni Sport o‘yinlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazib berilishini ta‘minlash vazifalari yuklansin.

5. Musobaqa g‘olib va sovrindorlarni 42 dona (1-o‘rin 14 dona, 2-o‘rin 14 dona, 3-o‘rin 14 dona) diplomlar bilan taqdirlash O‘zbekiston Basketbol federatsiyasi hisobidan qoplanishi inobatga olinsin.

6. Sport o‘yinlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabiga (J.Akramovga)ga:

a) musobaqa uchun ajratilgan mablag‘larni maqsadli sarflash;

b) musobaqada ishtirok etuvchi bosh kotibi, komendant hamda hakamlarning ovqatlanish xarajatlari ulaning bank plastik kartochkalariga pul o‘tkazish yo‘li orqali malga oshirish;

d) musobaqa yakunidan so'ng uch kun muddat ichida vazirlikning Moliya-iqtisodiyot departamentiga mablag'larning sarflanishi bo'yicha moliyaviy hamda olimpiya sport turlarini rivojlantirish boshqarmasiga texnik hisobotlarni topshirish;

e) musobaqa davrida vazirlikning Matbuot xizmatiga musobaqaga oid fotolavhalar va to'liq ma'lumotlarni kunma-kun berib borish tavsiya etilsin.

7. Namangan viloyati turizm va sport bosh boshqarmasi:

a) musobaqani o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalariga asosan Namangan viloyati hokimligidan ruxsatnoma olish;

b) musobaqani tashkil etishda Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi hamda O'zbekiston basketbol federatsiyasiga amaliy yordam ko'rsatish vazifalari yuklansin.

8. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmalariga ushbu musobaqada o'zlarining terma jamoasi ishtirokini ta'minlash vazifasi yuklansin.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmalari hamda vazirlik tizimidagi respublika tizim tashkilot hamda muassasalari rahbarlariga mazkur buyruqning 1-ilovasiga muvofiq tegishliligi bo'yicha xodimlarni musobaqada ishtirok etishini ta'minlash vazifasi yuklansin

10. Devonxonaga mazkur buyruq nusxasini Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmalari, Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi hamda O'zbekiston basketbol federatsiyasiga yuborish vazifasi yuklansin.

11. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Vazir o'rinbosari



A.Karimov


Turizm va sport vazirligining
2021 yil "05" *aprel* dagi
324-764 sonli buyrug'iga
1-ilova

**Sportning basketbol turi bo'yicha 2007-2008 yillarda tug'ilgan o'smirlar
o'rtasida O'zbekiston chempionatini o'tkazishda ishtirok etuvchi xodimlar
TARKIBI**

T/r	Familiyasi va ismi	Lavozimi	Yashash joyi	Ish joyi
1.	Pasxin Yuriy	Bosh hakam	Toshkent shahri	O'zbekiston basketbol federatsiyasi
2.	Ganiev Ravshan	Bosh hakam o'rinbosari	Toshkent shahri	O'zbekiston basketbol federatsiyasi
3.	Kostikova Oksana	Bosh kotib	Namangan viloyati	Namangan viloyat sportning o'yin turlari va yengil atletikaga iqtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktabi
4.	Xaydarov Baxtiyor	Hakam	Andijon viloyati	Andijon olimpiya zaxiralari kolleji
5.	Abduvalieva Zebo	Hakam	Namangan viloyati	O'zbekiston Davlat jaxon tillari universiteti
6.	Djaxonov Dilshod	Hakam	Farg'ona viloyati	Farg'ona shahri 24-son o'rta maktabi
7.	Ergashev Alisher	Hakam	Namangan viloyati	Namangan viloyati, Uychi shahri bolalar-o'smirlar sport maktabi
8.	Osmanov Enver	Hakam	Namangan viloyati	Namangan viloyat sportning o'yin turlari va yengil atletikaga iqtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktabi
9.	Xashimov Dilshod	Hakam	Toshkent viloyati	O'zbekiston basketbol federatsiyasi
10.	Djuraev Dilshod	Hakam	Namangan viloyati	Namangan viloyat sportning o'yin turlari va yengil atletikaga iqtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktabi
11.	Djemilova Aida	Hakam	Namangan viloyati	Namangan olimpiya zaxiralari kolleji
12.	Nugmanxodjaev Ilxom	Hakam	Namangan viloyati	Namangan olimpiya zaxiralari kolleji
13.	Isaev Anvar	Komendant	Namangan viloyati	Namangan olimpiya zaxiralari kolleji

Kiritildi:

Olimpiya sport turlarini rivojlantirish
boshqarmasi boshlig'i o'rinboari



S.G'ulomnazarov

Kelishildi:

Vazir o'rinbosari

Z.Kazakov

Moliya-iqtisodiyot
departamenti direktori



B.Mirzaxmedov

Yuridik va metodologiya
departamenti direktori



M.Karimova